

**ALEKSANDR MAKEDONISKIYNING O'RTA OSIYOGA HARBIY  
YURISHLARI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti  
13T-23-guruh talabasi  
Nazirova Nilufar Chori qizi  
Tel: +998 915785105*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti  
13T-23-guruh talabasi  
Islomidinova Farangiz Asqarali qizi  
Tel: +998885331646*

**MAQOLASI**

**Annatsiya:** Ushbu maqolada Makedoniyalik Aliksandrning O'rtta Osiyoga qilgan istilochilik yurishlari davomida bosib olingan hududlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bosqinchilik yurishi davomida o'lkamizning Xo'jand, Bekobod, Zarashon hududlarini egallaydi. Bu hududlarda Aleksandr Makedonskiyga qarshi bir qancha qo'zg'olonlar ro'y beradi.

**Kalit so'zi:** Iskandar, Filipp 2, Axamoniylar, Artakserks II Mnemon, O'rtta Osiyo, Bakra, Spitamen, Samarqand, Arses

**Annotation:** This article contains information about the territories conquered by Alexander the Great during his conquest campaigns to Central Asia. During the conquest campaign, Khojand, Bekobod, and Zarashan regions of our country were occupied. In these regions, several revolts against Alexander the Great took place.

**Keywords:** Alexander, Philip II, Achaemenids, Artaxerxes II Mnemon, Central Asia, Bakra, Spitamen, Samarkand, Arses

**Аннотация:** В данной статье содержатся сведения о территориях, завоеванных Александром Македонским во время его завоевательных походов на Среднюю Азию. В ходе завоевательного похода были оккупированы Ходжентский, Бекобадский и Зарашанский районы нашей страны. В этих регионах произошло несколько восстаний против Александра Македонского. .

**Ключевые слова:** Александр, Филипп II, Ахемениды, Артаксеркс II Мнемон, Средняя Азия, Бакра, Спитамен, Самарканд, Асы.

**Kirish:** Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp 2 mil.avv. 359-336 yillarda Makedoniya yuksaldi. U armiyani qayta tuzdi. Falanga- qo'shini ma'lum takibiy qismlarga bo'lib boshqarish. Mil.avv.337 yilda Korinf kongressida o'zini butun

GResiyaning hukmroni deb e'lon qilgan. 336 yilda o'z tan soqchisi tomonidan o'ldirilgan. Filipp Osiyoga yurishga tayyorgar ko'rayotgan edi. Shu sabab uning o'limiga forslar sababchi bo'lgan degan fikr bor. Uning o'g'li Aleksandr ham otasiga nisbatan ham o'ta shafqatsiz bo'lganligini keyingi darvlardagi voqealar tasdiqlaydi.

Aleksandar Osiyoga, ya'ni axamoniylarga qarshi yurish uchun yana 2 yil tayyorgarlik ko'rgan. Makedonlar armiyasining asosiy qismini og'ir qurollangan otliq qo'shin tashkil etgan. Lekin ular sekin harakat qilgani uchun, Osiyoni bosib olishda yengil qurollanagn piyoda qushini muxim o'rin egallagan.

Axamoniylar davlatini egallashda Axamoniylar davlati saroyidagi qarama-qarshiliklar, sodir bo'lgan voqealar va uning zaiflashuvi ham muxim o'rin egallagan.

Mil.avv. 359 yilda Axamoniyy podshosi Artakserks II Mnemon vafot etadi. Uning 150 ta farzandi bo'lgan. Undan keiyn taxtni egallagan Artakserks III Ox barcha qarindoshlarini ularning yoshi va jinsiga qaramasdan o'ltirib yuboradi. Axamoniyy podsholar orasida eng qonhur deb tarixda nomi qolgan. 338 yili Artakserks Ox Begoy toshirig'iga binoan o'z tabibi tomonidan zaxarlanib o'ldiriladi. Undan keyin taxtga Arses o'tiradi va ikki yil davlatni boshqaradi. Dastlab Begoya qo'lida o'yinchoq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil boshqarishga intilganda u yana Begoya tomonidan zaraxarlanadi. Uning bolalari ham o'ldirilib yuboriladi. Shu tariqa Axamoniylar oilasiga tegishli hech qim qolmagan. Shunda Begoya Arsesning troyurodnoy brat (amakivachasi) bo'lgan Doro III Kodomanni podsho deb e'lon qiladilar. Biroz vaqtdan keyin buni ham zaxarlashga uringanda, Doro uning o'ziga shu zahar solingan qadahni ichiradi. Bu kurashlar va sapraliklardagi mutaqqillik uchun bo'lgan harakatlar Axamonyilar imperiyasi zaiflashuviga va Makedonlar hukmronligiga tushib qolishiga olib keladi.

Aleksandr Osiyoga 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar bilan olib borgan. Kichik Osiyo qirg'oqlari bo'ylab, 150 ta kema kuzatib borgan. Mil. avv.334- 330 yillar davomida Iskandar Eronning asosiy [viloyatlarini bosib olgach](#), o'zining bosqinchilik yurishlarini davom ettirish maqsadida miloddan avvalgi 329 yilning bahorida Hindiqush tog'idan o'tib, qadimga Baqtriya tuprog'iga kirib keldi. Grek manbalarida O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ini Transaksoniya deb atashadi. Bu paytda Baqtriya hukmdori (satrapi) ahamoniylar urug'idan bo'lgan Bess edi. U Doro III ni zaxarlab o'ldirishda qatnashgan va o'zini Artakserks nomi bilan podsho deb e'lon qilgan. Doro III ning Baktriya satrapi Bess tomonidan o'ldirilganligini eshitgach, Aleksandr Makedonskiy uning orqasidan yanada tez ta'qib qilib ketdi. Bess Doro III ning jasadini tashlab, Baqtriya tomon ketdi.

U Baktriyaning yirik shaharlarini egallay boshlaydi. Drapsaka (Afg'onistondagi Anderab shaxri), Aorn (shimoliy Afg'onistondagi Oltindilertepa), Davlat poytaxti Bakrani (Shim.Afg'onistondagi Balx)ni egallaydi. Bess va uning tarfdorlari Amudaryoning Termizga yaqin joyidan o'tib, ko'prik vazifasini o'tab kelgan yakkayu

yagona kemani yoqib yuborishdi va Sug'd saporligining Nautaka xududiga chekinishdi. (Qashqadaryoning sharqiy tomoni) tomon chekinishdi. Ularning orqasidan Aleksandr Ptolemey boshchiligida armiyaning bir qismini yuboradi. Nautaka qal'asida Bessning ittifoqchilari baqtriyalik Oksiart, sug'dlik Spitamen va fors Datafarnlar o'rtasida nizo chiqdi. Chunki Bess o'z ittifoqchilariga ahamoniylar zulmiga va Iskandar hujumiga qarshi birgalashib kurashishga ahd qilgan edi. Dastlab ular Bessning niyatini anglab etmay, u bilan birga bo'lishdi. [Ammo uni](#), ittifoqchilari bilan shohlar kabi munosabatda bo'lishga intilayotganini sezgan Spitamen, Oksiart va fors Datafarnlar u bilan aloqani uzishdi va uni kishanlab Iskandarga topshirish niyatida ekanliklarini bildirish uchun uning qarorgohiga chopar yubordi. Kishanlangan Bessni qal'ada qoldirib, o'zlari esa mamlakat ichki hududlariga chekinishdi. Spitamen va uning ittifoqchilari Bessni Iskandarga topshirish bilan dushman istilolarini to'xtatmoqchi bo'lishdi. Chunki Iskandar Eronga yurish boshlaganda, u o'z dushmani Doro III ni nomardlarcha zaharlab o'ldirgan Bessdan o'ch olish niyatida ekanligi e'lon qilgan edi.

Ptolemey orqasidan katta qo'shin bilan Aleksandrning o'zi yurdi. Uning yo'lida branxidlar shahri chiqdi. Branxidlar avlodlari Milet (Kichik Osiyo) shaxriga yaqin Appalon Didimkiy ibodatxonasining ruhoniylari bo'lgan. Ular Kserks davrida (mil. avv.481-465 yy.) O'rta Osiyoga ko'chirilgan edi. Branxidlar Eron bosqini davrida ibodatxonaning xazinasini axamoniylarga topshirib, jonlaini saqlab qolgan edilar. Yunonlarning qasosidan qo'rqib O'rta Osiyoga kelgan edilar. Ular mil.avv. V asrda O'rta Osiyoga kelgan birinchi yunonlar bo'lishgan. Ularning shaxri Yerqo'rg'on yodgorligi o'rnida bo'lgan. Bu hozirgi kunda Qarshi shahridan 10 km shimolda joylashgan. Branxidlar Makedonskiy va uning qo'shinlarini non va tuz va xursandlik bilan kutib olgshan bo'lsalar-da, Makedonskiy ularning barchasini xoinlikda ayblab, qirib tashlaydi va shaxrini ham vayron qiladi. Tarixchilardan Arrian va Kvint Kursiy Ruflarning [xabar berishiga qaraganda](#), Iskandar va uning qo'shinlari o'z vatandoshi sifatida xursandchilik bilan kutib olishga chiqqan begunoh branxidlarni qirib tashlaydi va ularning shahar va qishloqlarining kulini ko'kka sovuradi. Shundan keyin Aleksandr Ptolemey qo'shinlari bilan birlashadi. U asirga tushgan Bessning quloq va burnini kesib, Ekbatana shahriga, ya'ni Doro III ning qarindoshlari qo'lga topshirish uchun yuboradi. U yerda Bess vaxshiyona o'ldiriladi.

Nautakadan keyin Aleksandr Marakanda (Samarqand)ga yo'l oladi. Bu Transaksoniyaning yirik shaxarlaridan biri bo'lgan.

Iskandar jangda o'ta berahm bo'lgan. Maraqandani egallagach, maxalliy tilni yaxshi biladigan Farnux boshchiligida 1000 ta jangchidan iborat gornizonni qo'yib, o'zi Sirdaryo bo'yida joylashgan Kiropol shaxrini egallashga ketadi. (Kiropol-shim.Tojikistondagi Nurtepa yodgorligi). U Katvan cho'li, Malguzar tog'liklari va Zamin cho'li (Tojikistonning Xo'jand viloyati) orqali borgan. Bu yerda Kiropolga

yetmasdan yozma manbalarda ma'lumot berishlaricha, 7 ta shahar qattiq qarshilik ko'rsatgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida, mil.avv. V-IV asrlarga oid bir necha manzilgohlar topilgan. Ularning eng yiriklari Xan tepa va Nurtepa bo'lgan. Bu yerda bo'lgan jangda hatto Aleksandrning o'zi ham yaralangan. [Kiropolni egallab](#), U yerda Aleksandriya Esxatani bunyod etgan.

U birinchi bor Ustrushonada Samarqand bilan Xo'jand oralig'ida tog'liklar qarshiligiga uchraydi. Biroq Iskandar tog'liklar bilan bo'lgan jangda o'ta shafqatsizlik qildi.

Arrianning yozishicha, u 30 ming mahalliy aholidan 22 mingini qirib tashlaydi. Asirga tushishni istamagan tog'liklarning qolganlari o'zlarini qoyalardan tashlab halok bo'ladilar. Bu dahshatli voqea Spitamenning "ko'zini ochdi". U Iskandar niyatlarining mohiyatini to'liq tushunib yetdi va unga qarshi qat'iy kurashga otlandi. Iskandar tog'liklarni qirib, tezda Sirdaryo yoqasiga chiqib oldi. Sirdaryo bo'yiga Iskandarga do'stlarcha sovg'a-salomlar bilan Tanais (Sirdaryo)ning narigi tomonidan tiy-taradarayya saklari vakillari keladi. Shunda Iskandar sak elchilarini garovda qoldirib, o'z yaqinlaridan bir kishini Tanais ortidagi saklar yurtiga ularning urf-odatlarini, kuchi bilan tanishib kelish uchun yubordi. Xuddi shu paytda Iskandarga Samarqanddan chopar kelib, So'g'dda unga qarshi Spitamen boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilganini xabar qiladi. Spitamen Samarqand qamal qilingan. Farnux boshchiligidagi gornizon esa, Samarqandga yaqin Miyonqol xududida mag'lubiyatga uchragan edi. Dastlab Iskandar qo'zg'olonchilarga qarshi 2500 jangchidan iborat bo'lgan qo'shin yuboradi. Ularning kelayotganidan xabar topgan Spitamen yolg'ondan chekinib, qulay fursat topib ularni qirib tashlaydi. Maraqandani ikkinchi marta qamal qiladi. Bundan xabar topgan Iskandar tezda Samarqandga qaytadi. Bundan xabar topgan Spitamen yana cho'lga qochadi. Lekin Makedonskiy ularni ta'qib [qilmasdan](#), qishloq va shaxar aholisini qilichdan o'tkazadi. Qo'lga olingan 30 so'g'd zadagonlari o'limga qo'shiq aytib borgan. Bu Aleksandrni hayron qoldirgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Diodor ma'lumoticha, 120 mingdan ortiq qo'zg'olonchi va mahalliy katta qismini qirib tashladi. Shu paytda Xo'jand qal'asida qoldirilgan, garovda yotgan saklar bosh ko'taradilar va yunon qo'shinlari qirib tashlanadi. Samarqand qo'zg'olonchilariga Baqtriyadan yordam keladi. Voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, saklar, so'g'dlar va baqtriyaliklar oldindan bir vaqtda bosh ko'tarishga kelishib olishgan ko'rinadi. Xuddi shu voqealardan boshlab Spitamenning nomi Iskandar va uning qo'shinlari uchun dahshatli bo'lib qoldi.

O'rta Osiyodagi harbiy vaziyat Iskandar uchun juda murakkab edi. Sirdaryoda saklar to'planib, jangga shay turishdi. Samarqand Spitamen tomonidan qamal qilindi va yunon qo'shini yanchib tashlandi. Iskandar Sirdaryoda ikkinchi marotaba yarador bo'ldi.

Saklarning qarshiligini qaytarib turish maqsadida Sirdaryo sohilida 17 kun ichida mustahkam mudofaa devori bilan o‘ralgan qal’a qurdiradi. qal’aga "Aleksandriya Esxata", ya’ni "Olisdagi Aleksandriya" deb nom qo‘ydi va unga yunon qo‘shinlarini, kasallarni, yaradorlarni, bolalar va keksalarni joylashtirdi. Bu shaxarning qurilishi saklar uchun muammo bo‘lishini anglab, Iskandar istehkomiga qarshi katta qo‘shin bilan yubordi. Uni buzush uchun Kursiy Ruf ma’lumoticha, o‘z ukasi boshchilik qilgan. Hujumni birinchi bo‘lib Iskandar boshladi. Uning jangchilari o‘t ochar mashinalar bilan daryoni kechib o‘tadi. Tadqiqotlar natijasida uning Bekobod qishlog‘i yonidan, ya’ni Sirdaryoning eng tor yeridan kechib o‘tilgan degan fikrlar bor. Jang qattiq bo‘ldi. Saklar Iskandar siquviga bardosh bera olmadilar. 150 tasi asir olinadi. Minglab saklar halok bo‘ladi. Iskandar sahroning ichiga kirib boradi. Lekin uning qo‘shinlari orasida me’da kasalligining tarqalishi, jazirama va suvsizlik ham askarlar noroziligiga sabab bo‘lgan. Vaziyat Iskandarni o‘z qo‘shinlari bilan Aleksandriya Esxata qal’asiga qaytishga majbur etdi. Ko‘p o‘tmay, saklarning elchilari kelib, undan kechirim so‘raydi. Iskandar esa ularni xayrixohlik bilan qabul qildi. Uning maqsadi saklar bilan munosabatni yaxshilash edi.

Spitamene rahbarligida makedoniyalik bosqinchilarga qarshi xalq harakati boshlanib ketdi. Iskandarning rejaları chippakka chiqdi. Spitamening ko‘ngilli jangchilari ayyor va kuchli dushmanga qarshi ochiq kurashga otlandi. Agar Spitamene avvallari Iskandarga Turon xalqlarini fors zulmidan ozod etuvchi xaloskor sifatida qaragan bo‘lsa, endi uni Turon xalqining ayyor va kuchli dushmani ekanligini his etdi. Iskandar miloddan avvalgi 329 yili Baqtriya va So‘g‘d yerlariga kirib kelganda mahalliy aholiga itoatkor qul sifatida qaragan edi. Uning niyatini Turon zaminning barcha xalqi tushundi. Vaziyatning jiddiyligini tushungan Iskandar darhol Baqtriyaning bosh shahri Baqtrada (yunoncha Zariasp, forsha Balx) barcha eparxlarni yig‘ib qurultoy chaqirdi. Mahalliy aslzodalar Iskandarning niyatini darhol tushundilar va barchani qo‘zg‘olonlonga tayyorladi. qurultoyning asosiy maqsadi O‘rta Osiyoda yunonlar hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Biroq, [uning ochilishi oldidan](#), "Iskandar qabila boshliqlarini Zariaspda yig‘ib, so‘ngra yo‘q qilib yuborish niyatida emish" degan gap tarqaldi. Bunga javoban qurultoyning ochilish kuni qo‘zg‘olonlong boshlanishiga signal bo‘ldi.

**XULOSA:** Mil.avv. 329-328 yilning qishini Aleksandr Samarqandda 3 ming lashkardan iborat qo‘shinni qoldirib, o‘zi Zariaspqa qishlash uchun jo‘nab ketdi. Shunday qilib, milliy ozodlik kurashining birinchi bosqichi yakunlandi. Bularning barchasi miloddan avvalgi 329 yilning bahoridan to kuzigacha davom etdi.

Qo‘zg‘olonlong ikkinchi bosqichi miloddan avvalgi 328 yilning qish faslida boshlandi. huddi shu vaqtda Iskandar Zariaspda Baqtriya eparxlarining (hokimlarining) qurultoyini o‘tkazayotgan edi. qurultoyda Bessni sud qilishdi. Bosib olingan viloyatlarni qanday qilib boshqarish masalasi ham ko‘rildi. Iskandar g‘arbdan

qo‘shin chaqirdi va Neparx boshchiligida yordamchi kuchlar etib keldi. qurultoyga Ovrupo skiflaridan Iskandar bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida katta sovg‘a-salomlar bilan elchilar kelishdi. Ular Iskandarga skif malikasini xotinlikka taklif qilishdi. Katta sovg‘a-salomlar bilan do‘stlik aloqalarini o‘rnatish uchun qadimgi Xorazmdan 1500 otliq askarlar bilan elchilar ham kelishdi. Xorazm podshosi Farasman elchilar orqali Iskandar rozi bo‘lsa, unga qora dengiz bo‘yi skiflariga qarshi harbiy yurishlarida amaliy harbiy yordamga tayyor ekanligini izhor etadi. Jahongir ularga minnatdorchilik bildirib, u Hindiston tomon yurish qilish niyatida ekanligini bayon etadi. Shoh Farasmon haqidagi ma’lumotni Arrian yozib qoldirilgan. Kvint Kursiy Ruf asarida Xorazm shoxi Fratofern deb berilgan.

Iskandar qurultoyda mamlakatni boshqarishda satrapliklar tizimini qoldirishni ma’qul topdi. Ammo satraplarning pul zarb etish va o‘z ixtiyorlarida yollanma qo‘shin saqlashga xaqqi yo‘q edi. Iskandar satrapliklarda makedoniyaliklardan o‘z nazoratchilarini kuchaytirdi. Satrapliklarda moliyaviy ishlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus javobgar kishilar saqlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kovalev S. I., Aleksandr Makedonskiy, L., 1937;
2. Trever K., Aleksandr Makedonskiy v Sogde, „Vestnik istorii“, 1947, № 5;
3. Bertels Ye. E., Roman ob Aleksandre i yego glavnie versii na Vostoke, M.- L., 1948.